



INKLYUZIV GURUHLARDA TARBIYACHI FAOLIYATI MAZMUNI

Musirmonova Dilobar Odil qizi

Qashqadaryo pedagogika texnikumi o'qituvchisi,

Abdullayeva Shaxnoza Nuriddin qizi

Qashqadaryo pedagogika texnikumi o'qituvchisi

THE CONTENT OF AN EDUCATOR'S PROFESSIONAL ACTIVITY IN INCLUSIVE GROUPS

Musirmonova Dilobar Odil qizi

Lecturer, Kashkadarya Pedagogical Technical College,

Abdullayeva Shaxnoza Nuriddin qizi

Lecturer, Kashkadarya Pedagogical Technical College

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv guruhlarda tarbiyachi faoliyatining mazmuni va tuzilmasi ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida tarbiyachining diagnostik, rejalashtiruvchi, ta'limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlovchi hamda hamkorlikka asoslangan faoliyat yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv guruhda samarali pedagogik faoliyatni ta'minlovchi kasbiy kompetensiyalar (differensial yondashuv, adaptiv metodlar, kommunikativ va refleksiv ko'nikmalar) asoslanadi. Maqola natijalari inklyuziv muhitda bolalarning teng ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish hamda tarbiyachilarni inklyuziv amaliyotga tayyorlashga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanishi mumkin.*

Kalit so'z. *inklyuziv ta'lim, inklyuziv guruh, tarbiyachi faoliyati, individual yondashuv, differensial ta'lim, adaptiv metodlar, maxsus ta'lim ehtiyojlari, pedagogik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, kasbiy kompetensiya.*

Abstract. *This article provides a theoretical analysis of the content and structure of educators' professional activities in inclusive groups. It examines key functional areas of an educator's work in inclusive education settings, including assessment and monitoring, individualized planning, instructional and developmental support, socio-psychological facilitation, and systematic collaboration with parents and relevant specialists. The paper also substantiates core professional competencies required for effective inclusive practice, such as differentiated instruction, adaptive methods, communication, and reflective skills. The findings may inform the development of methodological guidelines aimed at ensuring equitable participation,*



strengthening children's social adaptation, and improving educator preparation for inclusive environments.

Keywords. *inclusive education, inclusive group, educator's activity, individualized approach, differentiated instruction, adaptive methods, special educational needs, pedagogical support, social adaptation, professional competence.*

So'nggi yillarda ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etish global ijtimoiy-pedagogik ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Inklyuziv ta'lim modeli barcha bolalar, jumladan, rivojlanishida jismoniy, aqliy yoki psixologik cheklovlarga ega bo'lgan bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonda tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy faoliyati markaziy o'rinni egallaydi. Chunki inklyuziv guruhda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, avvalo, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, ijtimoiy-psixologik sezgirligi va pedagogik pozitsiyasiga bevosita bog'liqdir.

Inklyuziv guruh tushunchasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida shakllangan bo'lib, u turli individual ehtiyoj, imkoniyat va rivojlanish darajasiga ega bo'lgan bolalarning birgalikda tarbiyalanishi va rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik muhitni anglatadi. Bunday guruhlarda bolalarning farqliligi kamchilik yoki muammo sifatida emas, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim manba sifatida qaraladi. Inklyuziv guruh an'anaviy tarbiya modelidan farqli ravishda, barcha bolalarning teng ishtirokini ta'minlashni, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini moslashtirishni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Inklyuziv guruhning pedagogik mohiyati shundan iboratki, unda tarbiya jarayoni bola markazida tashkil etilib, pedagogik dastur va metodlar bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda qayta loyihalanadi. Bu jarayonda tenglikdan ko'ra adolat tamoyili ustuvor bo'lib, har bir bolaga bir xil talab qo'yish emas, balki uning rivojlanish darajasiga mos pedagogik yordam ko'rsatish muhim hisoblanadi. Shuningdek, inklyuziv guruhda ta'lim jarayoni moslashuvchan, differensial va ko'pkanalli yondashuvlar asosida olib borilib, o'yin, hamkorlik, vizual va amaliy faoliyatlari orqali bolalarning faolligi qo'llab-quvvatlanadi.

Bunday guruhlarda tarbiyachi nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi mutaxassis, balki bolalarning ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligini ta'minlovchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi har bir bolaning individual rivojlanish yo'lini kuzatadi, pedagogik jarayonni moslashtiradi, bolalar o'rtasida ijobiy muloqot va hamkorlik muhitini yaratadi hamda kamsitish va chetlatilish holatlarining oldini oladi. Shu bilan birga, inklyuziv guruhda ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Umuman olganda,



inklyuziv guruhning pedagogik mohiyati bolalarni jamiyat hayotiga tayyorlash, turlicha shaxslarni qabul qilish madaniyatini shakllantirish va har bir bolaning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonining insonparvar, ijtimoiy yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishini ta'minlaydi hamda inklyuziv ta'limning asosiy g'oyalarini amaliyotda ro'yobga chiqaradi.

Inklyuziv guruhda tarbiyachi faoliyatining mazmuni oddiy "dars o'tish" bilan tugamaydi: u bir vaqtning o'zida kuzatuvchi, rejalashtiruvchi, tashkilotchi, ijtimoiy muhitni boshqaruvchi va hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi mutaxassis sifatida ishlaydi. Bunday guruhda tarbiyachining asosiy vazifasi har bir bolaning imkoniyati va ehtiyojini real holatda ko'rib, tarbiyaviy-ta'limiy jarayonni shu ehtiyojlarga mos tarzda qayta qurishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachi avvalo diagnostik faoliyatni yo'lga qo'yadi, ya'ni bolalarning rivojlanish darajasi, xulq-atvori, muloqot uslubi, emotsional holati, qiziqishlari va qiyinchiliklarini tizimli kuzatadi, ularni muntazam qayd etadi hamda bu ma'lumotlarni individual xaritalar va tahliliy yozuvlar ko'rinishida shakllantiradi. Diagnostik jarayon bir martalik "baholash" emas, balki doimiy pedagogik monitoring bo'lib, tarbiyachiga bolaning bugungi holatini ham, o'sish dinamikasini ham aniq ko'rish imkonini beradi; zarur bo'lganda u psixolog, defektolog yoki boshqa mutaxassislar bilan birga tahlil qilib, bolaning ehtiyojini to'g'ri talqin qiladi.

Diagnostika natijasiga tayangan holda tarbiyachi individual rejalashtirishni amalga oshiradi. Inklyuziv muhitda yagona, hamma uchun bir xil dastur ko'pincha samarali ishlaymaydi, chunki bolalar rivojlanish sur'ati va o'rganish uslubi jihatidan farqlanadi. Shu bois tarbiyachi umumiy dastur doirasida har bir bola uchun moslashtirilgan topshiriqlarni tanlaydi yoki ishlab chiqadi, maqsad va natijalarni bolaning real imkoniyatlariga mos belgilaydi, mashg'ulotning murakkablik darajasini differensial qiladi, qo'llab-quvvatlovchi vositalar (vizual jadval, piktogramma, ko'rsatma kartalar, kichik bosqichli instruktsiyalar)dan foydalanadi. Bunda rejalashtirishning mohiyati "bolani dasturga zo'rlab moslash" emas, balki dastur elementlarini bolaga moslab, uning muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashdir; ya'ni tarbiyachi har bir bola uchun yutuqqa olib boradigan eng oqilona pedagogik yo'lni oldindan loyihalaydi. Keyingi muhim komponent tarbiyaviy-ta'limiy faoliyat bo'lib, inklyuziv guruhda tarbiyachi o'yin, mehnat, kommunikativ va ijodiy mashg'ulotlarni shunday tashkil etadiki, guruhdagi barcha bolalar jarayonning "tomoshabini" bo'lib qolmay, faol ishtirokchiga aylansin. Bu yerda "teng ishtirok" degani hamma bolaga bir xil topshiriq berish emas, balki hamma uchun mazmunan bir mavzu doirasida, ammo bajarish usuli va darajasi bo'yicha moslashtirilgan faoliyat yaratishdir. Tarbiyachi mashg'ulotni kichik



bosqichlarga bo'ladi, ko'rsatma va namuna beradi, guruh, juftlik va mikroguruhlar bilan ishlashni uyg'unlashtiradi, har bir bolaning qobiliyatiga mos rol va vazifalar taqsimlaydi, muvaffaqiyatni kichik yutuqlar orqali mustahkamlaydi. Shuningdek, u tarbiya jarayonida bolalarning mustaqilligini oshirish, o'zini boshqarish, navbat kutish, qoida asosida o'ynash, muloqot boshlash va yakunlash kabi hayotiy ko'nikmalarni ham tizimli shakllantiradi, chunki inklyuziya faqat akademik emas, ijtimoiy rivojlanish maqsadini ham ko'zlaydi.

Inklyuziv guruhda tarbiyachining ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash faoliyati alohida ahamiyatga ega, chunki farqlilik mavjud muhitda munosabatlar boshqarilmasa, chetlatish, kamsitish yoki ijtimoiy uzilishlar paydo bo'lishi mumkin. Tarbiyachi guruhda ijobiy psixologik iqlimni yaratadi, bolalar o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlikni rag'batlantiradi, empatiya va bag'rikenglikni oddiy nasihat bilan emas, kundalik vaziyatlar, o'yinlar, umumiy topshiriqlar va tarbiyaviy suhbatlar orqali amalda shakllantiradi. U bolalarning hissiy holatini sezadi, qo'zg'aluvchanlik yoki xavotir kuchaygan paytda yumshoq tartibga solish usullarini qo'llaydi, konfliktlar yuzaga kelsa, jazolashga shoshilmay, bolalarga muammo yechish, kelishish va kechirim so'rash ko'nikmalarini o'rgatadi. Bunda tarbiyachi "himoyachi" rolini ham bajaradi: u kamsitishning har qanday ko'rinishini to'xtatadi, har bir bolaga xavfsiz va qadrli ekanini his qildiradi, o'ziga ishonchni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, inklyuziv guruhda tarbiyachining hamkorlik faoliyati tizimning "dvigateli" hisoblanadi, chunki inklyuziya yakka tarbiyachi mehnati bilan emas, ko'p tarmoqli hamkorlik orqali natija beradi. Tarbiyachi psixolog, defektolog, logoped, maxsus pedagoglar bilan muntazam maslahatlashadi, kuzatuv natijalarini ulashadi, tavsiyalar asosida mashg'ulotlarni moslashtiradi, zarur bo'lsa korreksion mashqlarni kundalik faoliyatga qo'shadi. Ota-onalar bilan hamkorlik esa faqat yig'ilish o'tkazishdan iborat bo'lmaydi: tarbiyachi bolaning rivojlanish dinamikasi, uy sharoitida qo'llab-quvvatlash usullari, muammoli holatlarda bir xil yondashuvni ta'minlash bo'yicha izchil muloqot olib boradi. Natijada "bog'cha-oila-mutaxassis" uchligi bir maqsadga xizmat qilib, bolaning rivojlanishini parcha-parcha emas, yaxlit tizimda qo'llab-quvvatlaydi.

Inklyuziv guruhda faoliyat yurituvchi tarbiyachining kasbiy kompetensiyalari uning pedagogik samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi, chunki bunday muhitda ishlash oddiy metodik tayyorgarlik bilangina cheklanmaydi. Avvalo, tarbiyachi inklyuziv pedagogika asoslarini chuqur bilishi zarur, ya'ni inklyuziv ta'limning falsafasi, tamoyillari, maqsad va vazifalari, shuningdek, turli rivojlanish ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlashga oid ilmiy-pedagogik yondashuvlardan xabardor bo'lishi kerak.



Bu bilimlar tarbiyachiga bolalarning farqliligini to'g'ri anglash, ularni pedagogik jarayonda normal holat sifatida qabul qilish va mos pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, inklyuziv guruhda ishlayotgan tarbiyachi uchun psixologik sezgirlik va refleksiya muhim kasbiy kompetensiya hisoblanadi. Psixologik sezgirlik tarbiyachining bolalarning emotsional holatini, ichki kechinmalarini, yashirin ehtiyoj va qiyinchiliklarini o'z vaqtida payqay olishida namoyon bo'ladi, refleksiya esa o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, xatolarini anglash va pedagogik yondashuvlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish qobiliyatini bildiradi. Bu kompetensiyalar tarbiyachiga har bir bolaning holatiga mos pedagogik ta'sirni tanlashda va murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'l topishda yordam beradi.

Inklyuziv muhitda samarali ishlash uchun tarbiyachi differensial va adaptiv metodlardan foydalanish ko'nikmasiga ham ega bo'lishi lozim. Bu kompetensiya umumiy ta'lim mazmunini saqlagan holda topshiriqlarni murakkablik darajasi, bajarish shakli va pedagogik yordam miqdori bo'yicha moslashtirishni, turli metod va texnologiyalarni vaziyatga qarab tanlashni nazarda tutadi. Tarbiyachi bitta metod bilan cheklanib qolmay, o'yin, vizual, amaliy, kommunikativ va interfaol usullarni uyg'unlashtira olishi orqali barcha bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bundan tashqari, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiya inklyuziv guruhda tarbiyachining yetakchi roli bilan bevosita bog'liqdir. Tarbiyachi bolalar bilan ochiq va ishonchli muloqot o'rnatishi, ularni bir-birini tushunishga va qabul qilishga yo'naltirishi, otalar va mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilishi zarur. Ijtimoiy kompetensiya esa guruhdagi munosabatlarni boshqarish, ijobiy psixologik iqlim yaratish, konfliktlarni konstruktiv yo'l bilan hal etish va bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, inklyuziv guruhda ishlash tarbiyachidan yuqori darajada stressga chidamlilik va kasbiy moslashuvchanlikni talab etadi. Turli ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishlash, yuqori mas'uliyat, doimiy e'tibor va emotsional yuklama tarbiyachidan o'z holatini boshqarish, charchoq va stressni yengish, o'zini tezda yangi vaziyatlarga moslashtirish qobiliyatini talab qiladi. Kasbiy moslashuvchanlik tarbiyachining o'z faoliyatini o'zgaruvchan sharoitlarga mos holda qayta tashkil etishiga, yangiliklarni qabul qilishiga va doimiy rivojlanishga intilishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur kompetensiyalar majmui tarbiyachining inklyuziv muhitda nafaqat ijrochi, balki yetakchi pedagogik subyekt sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Aynan shu kasbiy kompetensiyalar orqali tarbiyachi inklyuziv guruhda har bir bolaning teng ishtirokini, ijtimoiy moslashuvini va har tomonlama rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlay oladi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Maktabgacha talim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2019.
2. Loreman, T., Deppeler, J., Harvey, D. Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom. 3rd ed. London: Routledge, 2021. 256 p.
3. O'zbekiston Respublikasi. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi Qonun. Toshkent, 2020. 32 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab talimi vazirligi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2022. 45 b.
5. Florian, L.. Inclusive Pedagogy: A Transformative Approach. Oxford: Oxford University Press, 2019. 184 p.